



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 23-oktabr

573-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 21-oktyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha valyuta nazoratini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2024-yil 14-oktabrdagi PF–156-son Farmoni ijrosi haqida”gi 488-6-0-Q/24-sonli qarori haqida

Tashqi savdo operatsiyalarida muddati o‘tgan debitor va kreditor qarzdorliklarni hisoblash, aktivlarni repatriatsiya qilish munosabatlarini tartibga solishni hamda bojxona to‘lovlarini kechiktirib to‘lash tartibini yanada takomillashtirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha valyuta nazoratini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2024-yil 14-oktabrdagi PF–156-son Farmoni hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 21-oktyabrdagi 488-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

- Namangan viloyati hokimining 2024-yil 21-oktyabrdagi 488-6-0-Q/24-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PF–156-son Farmoni bilan: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga ilovaga muvofiq quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi:
bojxona to‘lovlarini kechiktirib to‘lash muddatlarini birxillashtirish va ularning 120 kundan oshmasligini belgilash;
tashqi savdo operatsiyalarida muddati o‘tgan debitor va kreditor qarzdorliklarni hisoblash hamda aktivlarni repatriatsiya qilish tartibini takomillashtirish ma‘lumot uchun qabul qilinsin.
- Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov